



2021- yil yanvar-sentabr oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 3439,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,8 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxona va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.




Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu - o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 392,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 116,9 ni tashkil etdi va jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 0,7 % punktga ko'payib, 11,4 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'ng'iroq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 49,2 %, yoki 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 158,9 %), Taxiatosh (ulushi 44,6 %, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 253,0 %), Qorao'zak tumani (ulushi 34,5 % yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,6 martaga ko'p) ga to'g'ri keldi.



2021- yil yanvar-sentabr

49,2

Qo'ng'iroq

44,6

Taxiatosh

34,5

Qorao'zak




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga, jami qurilish ishlari hajmining **71,5 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,8 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **105,9 %** ni tashkil etgan holda **2460,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

**Kichik korxona
va mikrofirmalar, ulushi, % da**



Ma'lumot uchun: Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri 941,6 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 90,4 %, To'rtko'l (241,9 mlrd. so'm, ulushi 75,9 %), Mo'ynoq tumani (205,6 mlrd. so'm, ulushi 91,0 %) va Qo'ng'iroq (157,8 mlrd. so'm, ulushi 42,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.


2021- yil yanvar-sentabr

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**



Qurilish ishlaring umumi hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **17,1 %** ni tashkil etdi yoki **587,4 mld. so'm** miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **123,8 %** ni tashkil etdi.




Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **240,8 mld. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3199,0 mld. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **7,0 %** va **93,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida
shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari**



	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3439,8	109,8	100,0
Nukus sh.	1041,5	95,8	30,3
tumanlar:			
Amudaryo	160,6	122,7	4,7
Beruniy	171,2	104,4	5,0
Bo'zotov	51,5	102,7	1,5
Qorao'zak	102,7	177,9	3,0
Kegeyli	61,8	111,7	1,8
Qo'ng'irot	370,8	115,7	10,8
Qonliko'l	59,7	101,8	1,7
Mo'ynoq	225,9	103,7	6,5
Nukus	136,0	103,0	3,9
Taxiatosh	213,1	144,9	6,2
Taxtako'pir	74,9	116,5	2,2
To'rtko'l	318,8	114,8	9,3
Xo'jayli	123,1	112,3	3,6
Chimboy	92,4	159,6	2,7
Shumanay	80,2	107,7	2,3
Ellikqal'a	155,6	121,2	4,5

2021- yil yanvar-sentabr

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

68,1%

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurilishiga tegishli. Jami qurilish ishlarining 68,1 % i yoki **2430,9** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

75,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **295,0** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 75,2 % ni tashkil etdi.

61,5 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1513,3** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 61,5 % ni tashkil etdi


90,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **532,0** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 90,7 % ni tashkil etdi.

Ma’lumot uchun: **Yangi qurilish** – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlari (bino va inshootlar) kompleksini qurish .



Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Bino va inshootlar qurilishi



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **6,2 %** ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,0 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,0 %** punktga kamayib, **67,4 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,0 %** punktga ko'payib, **26,4 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **23,6 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **4,7 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **76,4 %** (**4,7 %** punktga ko'paydi) ni tashkil etdi.



2020- yil 2021- yil
yanvar-sentabr yanvar-sentabr


2021- yil yanvar-sentabr

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **1,5 %** punktga ko'paydi va **16,8 %** ni tashkil etdi. Qolgan **83,2 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **1,5 %** punktga kamaydi.



2021- yil yanvar-sentabr

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



**Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-sentabr**


mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3439,8	392,2	2460,2	587,4
Nukus sh.	1041,5	58,6	941,6	41,3
tumanlar:				
Amudaryo	160,6	0,3	92,4	67,9
Beruniy	171,2	0,0	108,7	62,5
Bo'zotov	51,5	0,1	45,9	5,5
Qorao'zak	102,7	35,5	54,9	12,3
Kegeyli	61,8	7,2	37,6	17,0
Qo'ng'irot	370,8	182,4	157,8	30,6
Qonliko'l	59,7	0,3	33,4	26,0
Mo'ynoq	225,9	3,8	205,6	16,5
Nukus	136,0	0,4	86,6	49,0
Taxiatosh	213,1	95,1	87,8	30,2
Taxtako'pir	74,9	0,3	67,5	7,1
To'rtko'l	318,8	0,3	241,9	76,6
Xo'jayli	123,1	0,2	81,3	41,6
Chimboy	92,4	0,2	53,4	38,8
Shumanay	80,2	0,1	67,1	13,0
Ellikqal'a	155,6	7,4	96,7	51,5


2021- yil yanvar-sentabr

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**

Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlaring respublikadagi ulushi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlari hajmi bo'yicha respublikadagi eng yo'qori ulushgaga ega Nukus shahri – 30,3 %, Qo'ng'irot tumani -10,8 %, To'rko'l tumani – 9,3 % va Mo'ynoq tumani – 6,5 % ga to'g'ri keldi.



2021- yil yanvar-sentabr

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14

(61) 222-75-91

2021- yil yanvar-sentabr

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**